Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G'., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH.....	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNII	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	



MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA

Israilova Xikoyat Musakulovna

Olmalik davlat texnika instituti

“Umumkasbiy va iqtisodiy fanlar” kafedrası katta o'qituvchisi,

O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda meva-sabzavotchilik tarmog'ining mohiyati, iqtisodiy o'rni hamda ushbu tarmoqda mavjud muammolar yoritilgan. Shuningdek, meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish masalalari, uning eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, mintaqaviy iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, meva-sabzavotchilik, meva-sabzavotchilik tarmog'i.

Abstract. This article examines the essence of the fruit and vegetable sector in the development of the national economy, its economic role, and existing problems within the sector. In addition, the study highlights key factors influencing the development of the fruit and vegetable industry and its export potential.

Key words: economy, regional economy, agricultural economics, fruit and vegetable growing, fruit and vegetable sector.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность, экономическая роль и проблемы плодовоовощной отрасли в развитии национальной экономики, а также вопросы её дальнейшего развития. В рамках исследования также показаны факторы, влияющие на плодовоовощную отрасль и её экспортный потенциал.

Ключевые слова: экономика, региональная экономика, экономика сельского хозяйства, плодовоовощеводство, плодовоовощная отрасль.

KIRISH

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda agrar sohaning, xususan, meva-sabzavotchilik tarmog'ining o'rni tobora ortib bormoqda. Aholi sonining doimiy o'sishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning kengayishi hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatning kuchayishi qishloq xo'jaligi tarmoqlarini, ayniqsa yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan meva-sabzavotchilikni strategik ahamiyatga ega soha sifatida qarashni taqozo etmoqda. Shu jihatdan, meva-sabzavotchilik tarmog'i nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki eksport salohiyatini oshirish, aholi bandligini kengaytirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida agrar sohani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, so'nggi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar va dasturlarda meva-sabzavotchilik tarmog'ini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda eksportni diversifikatsiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq mavjud salohiyatga qaramay, mazkur tarmoqda yer va suv resurslarining cheklanganligi, urug'chilik va tumanlashtirish tizimidagi kamchiliklar, qayta ishlash darajasining yetarli emasligi hamda logistika va savdo infratuzilmasining rivojlanish darajasi bilan bog'liq qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda meva-sabzavotchilik tarmog'ining iqtisodiy mohiyati va uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni turli yondashuvlar asosida tadqiq etilgan bo'lsa-da, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda tarmoqning eksport salohiyati, resurslardan foydalanish samaradorligi va qayta ishlash zanjirlarini rivojlantirish masalalari chuqurroq tahlilni talab etadi. Ayniqsa, global bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchanligi sharoitida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish va eksportini barqaror rivojlantirish omillarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Shu munosabat bilan mazkur maqolada meva-sabzavotchilik tarmog'ining milliy iqtisodiyotdagi iqtisodiy o'rni, mavjud muammolari hamda tarmoqni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarmoqning eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda meva-sabzavotchilik tarmog'ining milliy iqtisodiyotdagi o'rni agrar sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, aholi bandligini oshirish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda muhim omil hisoblanishi ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasida agrar sohani rivojlantirish va meva-sabzavotchilik tarmog'ini modernizatsiya qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilangan bo'lib, bu holat mamlakatning o'rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarida o'z aksini topgan [1], [2]. Xususan, "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" hamda unga muvofiq davlat dasturlarida qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirish, qayta ishlash va eksportni rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [1], [2].

Ilmiy manbalarda meva-sabzavotchilik tarmog'ining samaradorligi ko'p jihatdan ekinlar tarkibini maqbullashtirish, ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish hamda intensiv texnologiyalarni joriy etish bilan bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi. Jumladan, A. Gofurov qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda tarmoq tuzilmasini takomillashtirish va yer-suv resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan [10]. A. Gaffarov esa mintaqaviy ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish jarayonida meva-sabzavotchilik tarmog'i hududlar iqtisodiy faolligini oshiruvchi muhim omil ekanligini ilmiy jihatdan yoritadi [11]. L. Grishayeva tadqiqotlarida agrar bozorning institutsional asoslari, qayta ishlash zanjirlarini rivojlantirish va raqobat muhitini shakllantirish meva-sabzavotchilik mahsulotlari bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omillar sifatida ko'rsatilgan [12].

Xalqaro tadqiqotlarda ham meva-sabzavotchilik tarmog'i agrar iqtisodiyotning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida baholanadi. OECD va FAO tomonidan tayyorlangan prognoz va tahliliy hisobotlarda meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, logistika va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek, global qiymat zanjirlariga integratsiyani kuchaytirish eksport hajmi va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy shartlari sifatida e'tirof etiladi [5], [6]. FAO hisobotlarida esa meva-sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarishining barqarorligi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq aholisi daromadlarini oshirishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi [7]. FAOSTAT ma'lumotlari meva-sabzavotchilik mahsulotlarining jahon agrar savdosidagi ulushi yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatadi [8].

Shuningdek, Jahon banki tadqiqotlarida agrar sohada, jumladan, meva-sabzavotchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymatni oshirish, qayta ishlash va eksportni kengaytirish iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashning muhim manbai sifatida baholanadi [9]. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida ham meva-sabzavotchilik tarmog'ini modernizatsiya qilish, qayta ishlash ulushini oshirish va eksportni diversifikatsiyalash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [3]. Mazkur yo'nalishda qayta ishlovchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar tarmoq salohiyatini oshirishga xizmat qilishi ilmiy manbalarda qayd etiladi [4].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, meva-sabzavotchilik tarmog'ining milliy iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, innovatsion va resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta ishlash va logistika tizimini rivojlantirish hamda davlat tomonidan kompleks qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu jihatlar mazkur tadqiqotning ilmiy-nazariy asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda meva-sabzavotchilik tarmog'ining milliy iqtisodiyotdagi o'rni va rivojlanish xususiyatlarini o'rganishda umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Xususan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish usuli orqali meva-sabzavotchilik tarmog'ining iqtisodiy mohiyati, uning agrar sohadagi ahamiyati hamda rivojlanishiga oid nazariy yondashuvlar o'rganildi. Tahliliy-statistik usul yordamida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida meva-sabzavotchilik tarmog'ining ulushi, ekin maydonlari tarkibi, eksport hajmi va tarkibidagi o'zgarishlar dinamikasi baholandi.

Tadqiqot jarayonida taqqoslash usuli qo'llanilib, turli yillar kesimida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar solishtirildi hamda ularning rivojlanish tendensiyalari aniqlandi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida meva-sabzavotchilik tarmog'ining ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya jarayonlari o'zaro bog'liq holda tahlil qilindi.

Empirik ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, davlat dasturlari, rasmiy statistik ma'lumotlar, shuningdek, FAO, OECD va Jahon bankining ochiq axborot resurslarida e'lon qilingan tahliliy va statistik ma'lumotlardan foydalanildi. Tadqiqot natijalarini asoslashda mantiqiy xulosa



chiqarish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatda agrar sohani rivojlantirishning navbatdagi strategiyasini amalga oshirishning yangi bosqichida asosiy maqsad oziq-ovqat resurslarining xususiy ishlab chiqarishi, yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish salohiyatini oshirish negizida oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash hisoblanadi. Biroq hozirgi vaqtda meva-sabzavot tarmog'i va uning eksport salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan qator omillar mavjud.

1. Yer va suv resurslarining cheklanganligi. Yer va suv resurslari cheklangan sharoitda va respublika aholisining doimiy o'sishini hisobga olib, qishloq xo'jaligini yuritishning an'anaviy usullari yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Meva-sabzavotchilik va uzumchilikni jadal rivojlantirish uchun yangicha yondashuv va mexanizmlar, butun qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarkibini o'zgartirish, innovasion va resurstejamkor texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarkibida meva-sabzavotchilikning ulushi 32,0% dan ortiqroqni tashkil etadi. Biroq meva-sabzavotchilik ekinlariga ajratiladigan ekin maydonlarining ulushi umumiy ekin maydonining 20% idan oshmaydi. Yer va suv resurslarining ob'yektiv cheklanganligi va tuproqning bonitet ballini hisobga olgan holda ekin maydonlari joylashuvini maqbullashtirish va tarkibini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi ekinlarining ichki va tashqi bozorlarda talab qilingan va hosildor ekinlar uchun tanlov yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini muhim darajada oshirish va shu asosda boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini ishlab chiqarish hajmlarini oshirishga erishish imkonini beradi.

Bu haqda avvalgi yillarda erishilgan natijalar guvohlik beradi. Masalan, qishloq xo'jaligi umumiy ekin maydonida kartoshka va poliz ekinlari – 1991-yildagi 7% dan 2016-yildagi 9,5% (350,6 ming ga) gacha oshdi, texnika ekinlarining ulushi esa 41,9% dan 34,2% gacha (1,27 mln.ga) qisqardi. Ushbu ko'rsatkichlar 2023-yilda, mos ravishda, 14,3% va 7,7% ni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda barcha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining 27% idan ortig'i meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish uchun ishlatiladi. [1] Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi umumiy hajmida tarmoqning ulushi 40% ga yaqinni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida esa – 43,4% ni tashkil etadi. Ekin maydonlarini maqbullashtirish bilan bir qatorda, meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni jadallashgan joriy qilish, yangi intensiv bog'lar va uzumzorlar tashkil qilish, suvtejamkor, tuzga va biologik zararkunandalarga chidamli sabzavot ekinlarining yangi navlarini yaratish bo'yicha ishlar ham zarurdir.

2. Tumanlashtirish tizimi va urug'chilikdagi kamchiliklar. Meva-sabzavot mahsulotlari, poliz va dukkakli o'simliklarni ekish, asosan, kichik va tarqoq maydonlarda amalga oshirilib, ularda har xil tur, nav va ko'rinishdagi meva-sabzavot va dukkakli mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bularning hammasi xorijiy xaridorlar uchun navi, o'lchami va tashqi ko'rinishi bo'yicha talablarga javob bermagan holda eksportdagi muammolarni vujudga keltiradi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 40 dan ortiq turdagi sabzavot, poliz ekinlari va kartoshka, 32,5 mingdan ortiq meva navlari va 955 navdagi uzumlar yetishtiriladi. Shu bilan bir vaqtda, har yili 100 tonnadan ortiq har xil turdagi sabzavot urug'lari import qilinadi. Zamonaviy urug'chilikning vazifasi ekologik toza, noqulay sharoitlarga moslashishga layoqatli navlarni yaratishdan iborat. Sabzavot ekinlari bilan qayta ishlash va eksport qilish uchun turli hosildor navlarni yaratish bo'yicha urug'chilik ishlarini olib borish lozim.

3. Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash darajasi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksporti chuqur qayta ishlash va ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va assortimentini kengaytirish hamda chuqur qayta ishlash orqali o'sish uchun katta salohiyatga ega. Meva-sabzavotchilik tarmog'i eksportining rivojlanishi quyidagilarga asoslanishi zarur:

- 1) xom ashyo asosining jadal rivojlanishi;
- 2) qishloq xo'jaligi xom ashyosini chuqur qayta ishlash bo'yicha xorijiy investisiyalar jalb qilinadigan yangi ishlab chiqarishlarni qurish va amaldagilarini modernizatsiya qilishga;
- 3) zamonaviy savdo-logistika markazlari va muzlatgich quvvatlarini yaratishga. Masalan, 2016-2020-yillar davomida quyidagilar ko'zda tutilgandi:

- mintaqalarda qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlaydigan 370 ta korxona, jumladan, 99,1 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha 138 ta korxona hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va umumiy summasi 585,9 mln.AQSH dollarini tashkil etadigan yarim fabrikatlar va tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha yangi korxonalar qurish, amaldagi korxonalarni tiklash va modernizatsiyalash bo'yicha 180 ta investisiya loyihalarini amalga oshirish, ulardan 197,8 mln. AQSH dollari summasida meva-sabzavot tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha 85 ta loyihani amalga oshirish yo'li bilan sanoat usulida qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarish darajasini oshirish;



- har bir viloyatda muzlatgichda saqlash umumiy sig'imi 36,5 ming tonnali meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash, birlamchi qayta ishlash, qadoqlash, saqlash, transportivkalash va eksport qilish bo'yicha savdo-logistika markazlarini tashkil qilish;

- zamonaviy muzlatgich uskunolari bilan jihozlangan saqlash joylarining moddiy-texnik asosini mustahkamlash va rivojlantirish, 325-ming tonnali quvvatga ega bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash uchun zamonaviy muzlatgich kameralarini qurish. [1]

Quyidagilar ushbu vaziyatning sabablari hisoblanadi:

A) Meva-sabzavot mahsulotlarini xarid qilish va tayyorlashning mavjud tizimidagi uzilishlar. Ishlab chiqarilayotgan meva-sabzavot mahsulotlarining 50 foizdan ortig'i dehqon xo'jaliklari va aholining shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keladi. Biroq yuridik shaxs tashkil qilgan dehqon xo'jaliklarining ulushi 10% dan kamroqni tashkil etadi. Bunda kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va yuridik shaxs tashkil qilmagan holda dehqon xo'jaliklari bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish mexanizmi mavjud emas. Yuridik shaxs tashkil qilmagan holda dehqon xo'jaliklari bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish va kontraktatsiya shartnomalarini tuzish mexanizmini ishlab chiqish zarur.

- davlat ehtiyojlari uchun xaridlar masalasini puxta tartibga solish taqozo etiladi. Ishlab chiqaruvchilar bilan kontraktatsiya shartnomalarini tuzgan holda meva-sabzavot mahsulotlari hisobini yuritadigan davlat buyurtmachilari davlat tomonidan belgilangan rejalardan kelib chiqib, amal qiladilar. Hukumat qarori bilan tayyorlov-korxonalarining o'zlik aylanma mablag'lari, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasidan oshib ketmagan stavkalarda taqdim qilinadigan tijorat banklarining imtiyozli kredit resurslari hisobiga meva-sabzavot mahsulotlarini xarid qilish va saqlash uchun moliyalashtirishni amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lishiga qaramay, tijorat banklari tomonidan davlat ehtiyojlari uchun meva-sabzavot mahsulotlarini xarid qilishga imtiyozli kreditlar ajratish o'z vaqtida va tezkor bajarilmayapti.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 12 apreldagi PQ-2520-sonli qarori bilan "O'zbekoziqovqatxolding" XK tarkibiga kiradigan qayta ishlovchi korxonalarga 2019-yil 1 yanvargacha soliq imtiyozlari taqdim qilingan edi. Imtiyozlar taqdim qilish bilan bog'liq ravishda, bo'shatib olinayotgan mablag'lar texnik jihatdan qayta jihozlash va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga maqsadli foydalanishga tortiladi. Joylarda soliq organlari tomonidan soliq imtiyozlari taqdim qilinishi natijasida bo'shatib olinayotgan mablag'lardan foydalanishning maqsadli xususiyati tufayli bo'shatilayotgan mablag'larni texnik qayta jihozlash va modernizatsiyalashga darhol yo'naltirish taqozo etiladi.

B) Meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash sohasida raqobat muhitining mavjudmasligi muammoligicha qolmoqda. Mintaqa darajasida qayta ishlovchilar monopsonizmi¹ ko'pincha mintaqalarda bir-ikkita qayta ishlovchi korxonalar mavjud bo'lib, ular meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari bilan o'zaro munosabatlarida yetarli darajada past xarid narxlari belgilaydilar, ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarish hajmini oshirishga rag'batlantirmaydilar.

4. O'zbekiston eksportining diversifikatsiyalashmaganligi. O'zbekiston har yili taxminan 700 ming tona hajmida ho'l va quruq meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qiladi. Qiymat ifodasida ushbu ko'rsatkich asosiy sotish bozorlari kon'yunkturasidan kelib chiqib, o'zgaradi. O'zbek mahsulotlarining asosiy sotish bozorlari Qozog'iston (umumiy eksport hajmining 67% i), Rossiya (17%), Afg'onistan (5%), Qirg'iziston (2%) va boshqa mamlakatlar (9%) hisoblanadi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023-yilda 1757,7 ming tona meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 1,1% ga yoki 18,9 ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari Rossiya (37,0%), Pokiston (16,7%), XXR (12,3%) hamda Qozog'iston (10,3%) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan. 2023 yilda oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1180,8 mln. AQSH doll. qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 3,3% ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 4,8% ni tashkil etdi (2.2.1-jadval).

1-jadval. Meva-sabzavotlar eksporti tarkibi, mln.AQSH doll [1]

	2019	2020	2021	2022	2023
Meva va rezavorlar	406,8	353,9	280,6	291,6	547,6
Sabzavotlar	471,3	400,0	422,0	489,0	563,4
Uzum	223,7	188,3	208,5	280,1	155,1
Yangi qovun va tarvuzlar	13,1	35,6	22,7	37,2	40,0
	1114,9	977,8	933,8	1097,9	1306,1

1 Монополия – (грекча μόνος сўздан олинган бўлиб, бир, ὄψωνία харид, деган маънони англатади) – бозордаги вазият бўлиб, уларга нарх ва сотиш ҳажмини намоиш этган ҳолда сотувчилар билан ўзаро таъсирлашувчи ягона харидордир.



2023-yilda meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatdan eng katta hajmi Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 37,0%ni), bu ko'rsatkich Pokistonga eksport hajmidan 2,2 barobar ko'p (2.2.2-ilova).

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yakunida respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan 19,2 million tonnadan ortiq meva-sabzavot mahsulotlarining 132 turi sof yoki qayta ishlangan holda 69 ta chet mamlakatlariga (1,4 mln. tonnadan ziyod 1,2 mlrd. dollar qiymatiga yaqin) eksport qilinishini hisobga olinsa, masalaning naqadar muhimligi namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar meva-sabzavotchilik tarmog'ining milliy iqtisodiyotda muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari ushbu tarmoq oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirishda yetakchi o'rin egallashini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, yer va suv resurslarining cheklanganligi, urug'chilik va tumanlashtirish tizimidagi kamchiliklar, qayta ishlash darajasining yetarli emasligi hamda eksportning yetarlicha diversifikatsiyalanmaganligi tarmoq rivojini chekllovchi asosiy omillar sifatida aniqlandi. Mazkur muammolarni bartaraf etish meva-sabzavotchilik tarmog'ini modernizatsiya qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish va eksport geografiasini kengaytirish orqali milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://president.uz/uz/lists/view/5307>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini 'Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili'da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. <https://president.uz/uz/lists/view/5505>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://president.uz/uz/lists/view/1969>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 12-apreldagi PQ-2520-sonli "O'zbekoziqovqatxolding' aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://president.uz/uz/lists/view/1307>
5. OECD/FAO. OECD-FAO Agricultural Outlook 2025-2034. Paris/Rome: OECD Publishing & FAO, 2025. <https://doi.org/10.1787/601276cd-en>
6. OECD/FAO. OECD-FAO Agricultural Outlook 2021-2030. Paris: OECD Publishing, 2021. <https://doi.org/10.1787/19428846-en>
7. FAO. The State of Food and Agriculture 2025. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2025. <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/aafcd4ea-7248-4e4b-b00c-051df49bcd54/content>
8. FAO. FAOSTAT Database. Food and Agriculture Organization of the United Nations. <https://www.fao.org/faostat/en/>
9. World Bank. Agriculture and Food. World Bank official data and reports. <https://www.worldbank.org/en/topic/agriculture>
10. G'ofurov A. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning iqtisodiy muammolari (Farg'ona vodiysi misolida). Toshkent: Fan, 1979.
11. G'afforov A. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida Farg'ona mintaqasining ishlab chiqarish kuchlari. Toshkent: Fan, 1994.
12. Grishayeva L. Agrar bozorning konseptual asoslari // Xalqaro qishloq xo'jaligi jurnali. 2002. № 1. B. 21-26.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>